Abstract. Today, we can observe the processes of gradual intensification of competition in the global market, changes in supply and demand for various goods, and a high level of volatility in business structures. This, in turn, makes it necessary for business entities to form a competitiveness management system capable of adequately responding to the effects of the external and internal environment. The intensity of the competitive situation is determined by the general saturation of the market of goods of a certain type and a high level of market segmentation, the intersection of points of interest in the activities of enterprises. Therefore, an accurate assessment of the competitiveness of a business entity, if its proper formation is one of the relevant issues on the agenda.

Key words: competitiveness assessment, methodological approaches, competitiveness, competitiveness of an economic entity, efficiency.

Аннотация. Сегодня мы можем наблюдать процессы постепенного усиления конкуренции на мировом рынке, изменения спроса и предложения на различные товары, высокий уровень волатильности в бизнес-структурах. Это, в свою очередь, обуславливает необходимость формирования у субъектов предпринимательства системы управления конкурентоспособностью, способной адекватно реагировать на воздействие внешней и внутренней среды. Напряженность конкурентной ситуации определяется общей насыщенностью рынка товаров определенного вида и высоким уровнем сегментации рынка, пересечением точек интереса в деятельности предприятий. Поэтому точная оценка конкурентоспособности субъекта деятельности, если ее правильное формирование является одним из актуальных вопросов повестки дня.

Ключевые слова: оценка конкурентоспособности, методические подходы, конкурентоспособность, конкурентоспособность хозяйствующего субъекта, эффективность.

KIRISH

Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitlarida kichik biznes korxonalari belgilangan maqsadlarga erishish uchun muntazam tarzda bozor konyunkturasini kuzatib borishlari, uning holatini tahlil qilishlari va korxona imkoniyatlarini unga muvofiqlashtirishlari kerak. Bu esa, o'z navbatida, belgilangan maqsadlarga erishish uchun raqobatbardoshlikni baholashning turli xil uslubiy yondashuvlarini (analitik usul, grafik usul, indeks usuli, kompleks usul, matritsa usuli va boshqalar) qo'llashni talab etadi. Ayni paytda, raqobatbardoshlikni baholashning ko'plab usullari mavjud bo'lib, ularning tanlovi korxonaning o'ziga xos xususiyatlariga va uning maqsadlariga bog'liq. Raqobatbardoshlikni baholash iqtisodiy subyektning hozirgi holatini aniqlashga hamda rivojlanish istiqbollarini bashorat qilishga imkon beradi, bu esa ko'zlangan natijalarga erishish va yo'qotishlarning oldini olish imkoniyatini yaratadi. Ushbu maqolada tadbirkorlik subyektlari raqobatbardoshligini baholashda uslubiy yondashuvlarning ahamiyati qayd etilgan, iqtisodchi olimlar va mutaxassislar tomonidan



eng ko'p qo'llaniladigan usullarning mohiyati, ularning afzalliklari va kamchiliklari yoritilgan, tashkilotlarning raqobatbardoshligini baholashning boshqa mavjud usullari tahlil qilingan. Taqdim etilgan materiallar asosida tadbirkorlik subyektlari raqobatbardoshligini baholash jarayoniga muallifning uslubiy yondashuvi bayon etilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bozor muhiti ishtirokchilardan talab qiladi va ularni sifat hamda miqdoriy ko'rsatkichlarni doimiy ravishda yaxshilashga majbur etadi. Bozorda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun ishtirokchilar o'zlarining va raqobatchilarning pozitsiyalari hamda bozorning hozirgi holati to'g'risida tasavvurga ega bo'lishlari zarur. Biroq, tashqi va ichki muhitni sinchkovlik bilan tahlil qilmasdan turib, xo'jalik yurituvchi subyekt bozorda o'z mavqeini mustahkamlay olmaydi va raqobatbardoshligini oshira olmaydi. Ushbu jarayon uzluksiz bo'lishi lozim, shunda tashkilot o'zgarishlarga tezda javob bera oladi va ularga moslashadi.

Raqobatbardoshlik bozordagi muvaffaqiyatning asosiy omili bo'lib, tashkilotning raqobatchilarga qarshi turish va xaridorlarning ehtiyojlarini o'xshash tovarlarga ega bo'lgan raqobatchilarga nisbatan yaxshiroq darajada qondirish qobiliyatini belgilaydi. Raqobatbardoshlik bozordagi muvaffaqiyatning asosiy omili sifatida tadbirkorlik subyektlarining raqobatchilarga qarshi tura olishi va xaridorlarning ma'lum bir tovar yoki uning muqobiliga bo'lgan ehtiyojlarini boshqa ishlab chiqaruvchilarga qaraganda samaraliroq qondira olish qobiliyatini ifodalaydi.

Tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini baholashga oid uslubiy yondashuvlar masalasi M. I. Abuzyarova [1], L. A. Andriyana [2], A. G. Mokronosov [3], E. A. Pogrebtsova va V. V. Leushkina [4] kabi iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlarida, shuningdek raqobatbardoshlikni baholash usullarining qiyosiy tahlili N. A. Dubinina va V. G. Ramazanov [5] asarlarida aks etgan [6]. Shuni ta'kidlash kerakki, tashkilotning raqobatbardoshlik darajasini baholashda hamda raqobatbardoshlikni boshqarishda samarali tashkiliy-iqtisodiy yondashuvlarning mavjudligi uning o'sishiga yordam beradi. Tadbirkorlik subyektlari raqobatbardoshligini baholashda uslubiy yondashuvlarni tahlil etish va qiyoslash bu boradagi umumiy yondashuvni ishlab chiqish uchun xizmat qiladi. Buning natijasida raqobatbardoshlikni baholashga uslubiy yondashuvlarni umumlashtirish, shuningdek tadbirkorlik subyektlari raqobatbardoshligini baholashning mualliflik talqini aks ettirishga yordam beradi.

O'zbekiston iqtisodchi olimlari, jumladan, A. A. Sadikov, Z. K. Sidiqova va A. Q. Rustamovlar raqobatbardoshlikni baholash masalasini makroko'lam nuqtayi nazaridan ko'rib chiqqanlar. Ularning fikricha, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi iqtisodiyotning muhim ko'rsatkichlari holatini tashqi parametrlarga nisbatan yalpi baholashni o'zida mujassam etgan qiyosiy tavsif bo'lib, u xalqaro raqobatda namoyon bo'ladi.

Iqtisodiyotning raqobatbardoshligi namoyon bo'lishning bir necha darajali shakllariga ega:

- tovarning raqobatbardoshligi;
- xodimning raqobatbardoshligi;
- tovar ishlab chiqaruvchisining raqobatbardoshligi;
- tarmoqning raqobatbardoshligi;
- mamlakatning raqobatbardoshligi (yoki milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi) [7].

Raqobatbardoshlik formulasi quyidagi ko'rinishda ifodalanadi:

Raqobatbardoshlik = sifat + baho + xizmat ko'rsatish [8].

Mamlakatimizda raqobatbardoshlikni baholash borasidagi muhim tadqiqotlardan biri A. N. Xoliqulov, D. Q. Usmanova va X. A. Raximovlar tomonidan olib borilgan. Mualliflar raqobatbardoshlikni baholashda "... nafaqat ichki resurslardan samarali foydalanish, balki tashqi bozor sharoitlariga moslashish va yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etish ham muhim omil hisoblanadi. Statistik tahlil yordamida bu jarayonlarni chuqur o'rganish va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladigan aniq hamda ishonchli ma'lumotlarni olish mumkin", — deb hisoblaydilar [9].

N. A. Yuldasheva korxonaning raqobatbardoshligini baholash usullarini tahlil qilgach, korxona raqobatbardoshligini baholashning kompleks metodologiyasini taklif etadi. Unda asosiy e'tibor korxonaning moliyaviy ko'rsatkichlari asosida raqobatbardoshlikni aniqlash jarayoniga qaratilgan [10].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadbirkorlik subyektlari raqobatbardoshligi masalasining nazariy jihatlarini ko'rib chiqish jarayonida monografik usul qo'llanilgan. Tadqiqotning asosi axborotni qayta ishlashning statistik usullaridan foydalangan holda tizimli tahlildan foydalanishga asoslangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqobat iqtisodiy munosabatlarning ajralmas qismi bo'lgan zamonaviy dunyoda tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini baholash masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Raqobatbardoshlik bozor



iqtisodiyoti sharoitida tashkilotlarning muvaffaqiyati va barqaror faoliyat yuritishining asosiy omilidir. Korxona raqobatbardoshligini baholab borish uning haqiqiy holati to'g'risida zamonaviy va ishonchli ma'lumotlardan foydalanish asosida raqobatbardoshlik qobiliyatini uzluksiz oshirishga qaratilgan. Tadbirkorlik subyekti raqobatbardoshligini baholashga tizimli yondashish uni samarali boshqarish uchun asos bo'lishi kerak. Shu bois korxona raqobatbardoshligini baholashda turli xil uslubiy yondashuvlarni o'rganish zarurati tug'iladi.

Tadqiqotda bu borada L. A. Andriyanova, L. V. Makarova, E. A. Pogrebtsova va V. V. Leushkina kabi mualliflarning yondashuvlari hamda fikrlari o'rganilib, tashkilotlarning raqobatbardoshligini baholashning umumiy usullari orasida eng ko'p qo'llaniladiganlari aniqlangan (1-jadval). Korxonaning raqobatbardoshligini baholash turli xil usullar yordamida amalga oshirilishi mumkin, ularning har biri o'zining afzalliklari va kamchiliklariga ega. Jumladan, tahliliy usul tashkilot va uning raqobatchilari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlarini miqdoriy taqqoslashga asoslanadi. Bunday ko'rsatkichlar mahsulot sifati, narx, assortiment, marketing faoliyati va boshqalarni o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuv korxonaning kuchli va zaif tomonlarini raqobatchilar bilan taqqoslaganda ob'ektiv baholash imkonini beradi. Biroq, tahliliy yondashuv miqdoriy jihatdan o'lchash qiyin bo'lgan sifat omillarini (masalan, mahsulot brendi, korxona obro'si — goodwill) hisobga olmasligi mumkin (1-jadval).

1-jadval. Tashkilotning raqobatbardoshligini baholash usullari

Uslubiy yondashuv	Usulning mohiyati	
	Ustunliklari	Kamchiliklari
Tahliliy usul	Kirish ma'lumotlari bilan hisoblash va tahliliy operatsiyalarni amalga oshirishga asoslangan	
	Raqobatbardoshlikni baholashning aniq raqamli ko'rsatkichini olishga imkon bering	Iste'molchi nuqtai nazaridan eng muhim xususiyatlarni aniqlash va baholash qiyin. Parametrlarni va ularning ahamiyatini aniqlash qiyinligi
Grafik usul	"Raqobatbardoshlik ko'pburchak yoki " raqobatbardoshlikning radial diagrammasi"qurilishiga asoslangan	
	Nisbiy soddaligi va ko'rinishi	Umumiy o'rnatish imkoniyati yo'q korxonaning raqobatbardoshligi ko'rsatkichining qiymati va raqobatbardoshlikdagi o'zgarishlarni bashorat qilish
Indeks usul	Sanoat ko'rsatkichlari va yetakchi korxona ko'rsatkichlariga asoslanadi	
	Oddiylik, ravshanlik, korxonaning raqobatbardoshligiga ta'sir qiluvchi eng muhim mezon hisobga olinadi	Faqat bitta mahsulot korxonalarining raqobatbardoshligini baholash uchun ishlatilishi mumkin
Murakkab usul	Korxona faoliyatining muhim parametrlarining butun spektrini tahlil qilishga qaratilgan usullar	
	Qiyosiy ustunliklarning kengaytirilgan ro'yxatidan foydalanish. Yuqori ishonchlilik. Ichki va tashqi muhitni, korxonaning moliyaviy barqarorlik darajasini hisobga olish	Raqobatbardoshlikni baholash uchun kompleksning ilgari tavsiflangan usullari qo'llaniladi, shunga ko'ra ularning kamchiliklari ham muhosaba qilinadi
Matritsa usul	Matritsalaridan foydalanishga asoslangan – qatorlar bo'yicha tartiblangan jadvallar va elementlar ustunlariga	
	Natijalarning yuqori ishonchliligi baholash. Bozor ulushini aniqlash va bozorning o'sish sur'atlarini qo'llash oson. Faoliyat yo'nalishlari va o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tahlil qilish imkoniyati rivojlanish bosqichlari	Raqobatbardoshlikni baholash uchun ilgari tavsiflangan usullar kompleksda qo'llaniladi, shunga ko'ra ularning kamchiliklari ham muhosaba qilinadi

Tahliliy usulni to'ldiruvchi grafik usuli baholash natijalarini diagrammalar va matritsalar (masalan, BCG matritsasi, SWOT matritsasi) yordamida aks ettiradi, bu esa ma'lumotlarni idrok etish va tahlil qilishni osonlashtiradi. Masalan, BCG matritsadan foydalanish tovarlarni bozordagi ulushi va o'sish sur'atlari bo'yicha



tasniflash hamda rivojlanish strategiyalarini aniqlash imkonini beradi. SWOT tahlil matritasidan foydalanish esa tashkilotning raqobatbardoshligi to'g'risidagi ma'lumotlarni vizual tarzda tuzish va omillarni to'rt toifaga ajratish imkonini beradi: kuchli va zaif tomonlar, imkoniyatlar hamda tahdidlar. Asosiy maydonlarni tahlil qilish orqali turli raqobatbardoshlik omillari o'rtasidagi bog'liqlik aniqlanadi.

Indeks usuli raqobatbardoshlikni baholashda sifat va narx ko'rsatkichlari bo'yicha tortilgan integral indeksni hisoblashni taklif etadi [11]. Har bir indikatorning og'irligi ekspert yo'li bilan yoki marketing tadqiqotlari asosida aniqlanishi mumkin. Indeks turli xil tovarlar yoki tashkilotlarning raqobatbardoshligini taqqoslashga imkon beradi, ammo uning qiymati tanlangan og'irlik tizimi va taqqoslash bazasiga bog'liq. Andiyarovning so'zlariga ko'ra, korxona raqobatbardoshligini baholashning kompleks usuli — bu korxonaning raqobatbardoshligi, joriy raqobatbardoshlik va raqobatbardosh potentsialga nisbatan integral qiymatdir. E. A. Pogrebtsova va V. V. Leushkina [12] maqolasida ta'kidlanishicha, kompleks usul joriy va prognoz qilingan raqobatbardoshlik darajasini aniqlash asosida shakllanadi.

Tashkilotning raqobatbardoshligini baholashning kompleks usuli — bu bozor pozitsiyalarini tahlil qilishga tizimli yondashuv bo'lib, u texnik va iqtisodiy ko'rsatkichlarni baholashga asoslanadi. Masalan, texnik ko'rsatkichlar mahsulot sifatini va uning marketing orqali aniqlangan turli xususiyatlarini, shuningdek standartlarga hamda ehtiyojlarga muvofiqligini aks ettiradi. Iqtisodiy ko'rsatkichlar esa iste'molchining barcha xarajatlarini o'z ichiga oladi — sotib olishning boshlang'ich narxidan tortib, iste'mol muddati davomida foydalanish xarajatlarigacha.

Raqobatbardoshlikni integral baholash bu boradagi murakkab yondashuvlardan biridir. Bu turdagi yondashuv, avvalo, miqdoriy ko'rsatkichlar, sifat xususiyatlari va iste'molchi uchun iqtisodiy jozibadorlik kabi jihatlarni qamrab oladi hamda baholashning ob'ektivligini, har bir ko'rsatkichning ahamiyatini ta'minlaydi. Shu bilan birga, real bozor sharoitlari va iste'molchilarning xohish-istaklari ham hisobga olinadi.

Podolyakina E. V. va Sovetova N. P. ga ko'ra, matritsa usulidan foydalanish texnologiyasi koordinatalar tizimi printsipli bo'yicha matritsalarini qurishga asoslanadi, unda tashkilotning raqobatbardoshlik darajasini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar qiymatlarining o'zgarishi ifodalanadi [13]. N. Z. Safiullin va L. N. Safiullin monografiyasida aks etgan matritsa usuliga ko'ra, tez rivojlanayotgan bozorda katta ulushga ega bo'lgan korxonalar eng raqobatbardosh hisoblanadi [14].

Raqobatbardoshlikni baholashning matritsa usuli — bu matritsalarini qurish orqali tashkilotning bozor pozitsiyalarini tahlil qilishning maxsus usulidir [15]. Ushbu usulni qo'llash jarayoni baholash va ma'lumot to'plash mezonlarini aniqlashdan boshlanadi, keyin matritsa quriladi va biznes birliklari kvadrantlar bo'yicha taqsimlanadi, oxirida strategiya va monitoring ishlab chiqiladi.

Matritsa usulining ishlash printsipli ikkita asosiy parametrga ega koordinatalar tizimini yaratishdan iborat. Bu yondashuv quyidagilarga asoslanadi: bozorning nisbiy ulushi, bozorning o'sish sur'ati, raqobatbardosh pozitsiya va boshqa omillar. Eng mashhur yondashuvlardan biri BCG matritsasi bo'lib, u biznes birliklarini to'rt toifaga ajratadi: o'sib borayotgan bozor rahbarlari, barqaror bozor rahbarlari, o'sib borayotgan bozorlarda zaif va barqaror bozorlarda zaif.

Shuningdek, ushbu yondashuvning mashhur misollaridan biri Porter modeli bo'lib, u uchta strategiyaga — fokuslash, farqlash va xarajatlar bo'yicha yetakchilikka e'tibor qaratadi. Matritsa usulini qo'llash jarayoni baholash mezonlarini aniqlash va kerakli ma'lumotlarni to'plashdan boshlanib, matritsani qurish hamda biznes birliklarini kvadrantlarga taqsimlash bilan davom etadi va strategiyalarni ishlab chiqish hamda ularni monitoring qilish bilan yakunlanadi.

Tashkilotlarning raqobatbardoshligini baholashning matritsa usuli iqtisodiy ko'rsatkichlarni bozordagi boshqa tashkilotlar bilan tahlil qilish va taqqoslash yoki korxona assortimentini boshqarish tizimidagi innovatsiyalar darajasini baholashdan iborat.

Yuqorida keltirilgan fikrlar asosida tadbirkorlik subyektiining raqobatbardoshligini baholashga quyidagi uslubiy yondashuvlar tahlili amalga oshirildi. 2-jadvalga ko'ra, tadbirkorlik subyektiining raqobatbardoshligini baholashda taqdim etilgan uslubiy yondashuvlarning mohiyati mahsulotlarning bozor, iste'molchi va atrof-muhit xavfsizligi bo'yicha xalqaro standartlar talablariga muvofiqligini aniqlashdir.

Ushbu usullar mahsulotlarning iqtisodiy, estetik va texnik xususiyatlarini, shuningdek ularni sotishning tijorat hamda boshqa shartlarini (etkazib berish muddati, narx, tarqatish kanallari va boshqalar) tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Raqobatbardoshlikni baholashda qo'llaniladigan usullarning xilma-xilligiga qaramay, bu jarayonda har bir tarmoqning o'ziga xos jihatlari va ishlab chiqarishning mintaqaviy xususiyatlarini hisobga olish zarur. Shu munosabat bilan, ushbu sohaning o'ziga xos omillarini inobatga olgan holda tadbirkorlik subyektiining raqobatbardoshligini baholash uchun alohida metodologiyani ishlab chiqish ehtiyoji tug'iladi.

Tadbirkorlik subyektlari raqobatbardoshligini baholashning sanab o'tilgan usullaridan tashqari, ayni paytda keng tarqalgan reyting tizimi ham mavjud bo'lib, uning mohiyati korxonalar tomonidan turli sohalarida erishilgan natijalarni qiyosiy tahlil qilish orqali korxonalarni tartiblashdan iborat (2-jadval).



2-jadval. Tashkilotning raqobatbardoshligini baholashga uslubiy yondashuvlar

Usul	Usul tavsifi
Qiyosiy ustunliklarni tahlil qilishga asoslangan usul	Baholash birining darajasini taqqoslash orqali amalga oshiriladi ushbu korxonaning ko'rsatilgan ko'rsatkichlari va shunga o'xshash raqobatchi korxonaning ko'rsatkichi
Mahsulot sifati nazariyasiga asoslangan usul	Asosan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning iste'mol qiymatini o'rganishni belgilaydi va eng muhimi parametrlar raqobatdosh ishlab chiqaruvchilarning o'xshash mahsulot parametrlari bilan taqqoslanadi
Samarali raqobat nazariyasi asosida qurilgan usul	Tahlilning asosiy vositasi sanoatga tegishli bo'lgan korxonalarning pozitsiyalarini raqobatdosh firmalar va sanoatning o'rtacha ko'rsatkichlari bilan taqqoslashdir.
Firma va sanoat muvozanati nazariyasiga asoslangan usul	Muvozanat deganda ishlab chiqaruvchi boshqa holatga o'tish uchun stimulg ega bo'lmagan holat tushuniladi. Ya'ni, ishlab chiqaruvchi talabning o'zgarmas tabiati va ushbu bozorda texnologiyaning rivojlanish darajasi bilan tovarlarni ishlab chiqarish va sotishning maksimal hajmiga erishdi
Raqobatbardoshlikni baholashning matritsa usuli	Matritsa usulidan foydalanish texnologiyasi quyidagilarga asoslangan koordinatalar tizimi printsipi bo'yicha matritsalarini qurish, unda ko'rsatkichlar qiymatlarining o'zgarishi jami aks ettiriladi tashkilotning raqobatbardoshlik darajasini aks ettiradi
Muvozanat nazariyasi nuqtai nazaridan baholash	Har bir ishlab chiqarish omili bir xil va ayni paytda eng yuqori mahsuldorlik bilan ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, kompaniya biron bir ishlab chiqarish omilining ta'siri tufayli qo'shimcha daromadga ega emas va kompaniya u yoki bu omildan foydalanishni yaxshilash uchun rag'batga ega emas. Asosiy mezon-bu to'liq ishlatilmaydigan ishlab chiqarish omillarining mavjudligi
SWOT-tahlili	Korxonaning ichki muhitining zaif va kuchli tomonlarini, tashqi muhitning potentsial xavflarini tahlil qilish va tahlil asosida korxonalarni rivojlantirish uchun mavjud imkoniyatlarni aniqlash imkonini beradi
Ekspert baholash usuli	Mutaxassislarning fikrlari va taxminlarini tizimli ravishda to'plash, so'ngra olingan javoblarni qayta ishlash va natijalarni shakllantirish
Korxona mahsulotlarining raqobatbardoshligini baholashga asoslangan usul	Korxonaning raqobatbardoshligi qanchalik yuqori bo'lsa, uning raqobatbardoshligi shunchalik yuqori bo'ladi degan qarorga asoslanadi mahsulotlar
Korxona mahsulotlarini baholash	Tahlil qilinayotgan korxonaning raqobatbardoshligi ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatining oshishiga to'g'ridan-to'g'ri mutanosib ravishda oshishiga asoslanadi. Tahlil qilinayotgan korxona tovarlari va xizmatlarining raqobatbardoshligini aniqlash uchun, qoida tariqasida, bir qator marketing va kvalimetrik usullardan foydalaniladi


Reyting natijalari quyidagicha aniqlanadi:

1. taqqoslangan barcha korxonalar to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlarni jamlash;
2. olingan ma'lumotlar asosida ma'lumotlar matritsasini tuzish;
3. korxona ko'rsatkichlarini raqobatchilarning ko'rsatkichlari bilan taqqoslash;
4. korxonalarning ma'lum bir vaqt uchun reyting bahosini aniqlash;
5. barcha raqobatchi korxonalarni ranjirlash asosida joylashtirish.

Reyting usullaridan foydalanishning katta afzalligi — moliyaviy barqarorlik va boshqaruv obro'si kabi moddiy va nomoddiy aktivlarni hisobga olish imkoniyatidir. Raqobat va raqobatbardoshlik mohiyatini nazariy tadqiqotlar bilan bir qatorda, iqtisodiy adabiyotlarda raqobatbardoshlikni amaliy baholash muammosi uzoq yillardan beri muhokama qilinib kelmoqda. Aytilish mumkinki, bugungi kunda mahsulotlarning raqobatbardoshligini baholash masalasida ma'lum yutuqlarga erishilgan, o'xshash tovarlar va xizmatlarning raqobatbardoshligini aniqlash bo'yicha maqbul usullar ishlab chiqilgan. Biroq, vaziyat korxonalarning raqobatbardoshligini baholashga kelganda yanada murakkablashadi.

Ushbu yo'nalishda muayyan qadamlar qo'yilganiga qaramay, hozirgi paytda iqtisodchilar tomonidan korxonaning raqobatbardoshligini har tomonlama baholashning universal va umumiy e'tirof etilgan metodologiyasi ishlab chiqilmagan. Shu bilan birga, ma'lum bir korxonaning raqobatbardoshligini baholash zarurati mavjud, chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida ularning raqobatbardosh pozitsiyalarini baholash har qanday xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining ajralmas elementi hisoblanadi.

Raqobatchilarni va sohadagi raqobat sharoitlarini o'rganish, birinchi navbatda, korxonaning raqobatchilarga nisbatan afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash, shuningdek, o'zining muvaffaqiyatli raqobat strategiyasini ishlab chiqish hamda raqobatdosh ustunlikni saqlab qolish uchun zarur xulosalar chiqarishni taqozo etadi. Korxonaning raqobatbardoshligini aniqlash har qanday xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm. Tadbirkorlik subyektlari raqobatbardoshligini baholash metodologiyasi

Xususan, xo'jalik yurituvchi subyektning raqobatbardoshligini baholash quyidagi maqsadlarda zarur:

- raqobatbardoshlikni oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- qo'shma faoliyat uchun kontragentlarni tanlash;
- korxonaning yangi bozorlarga chiqish dasturini tuzish;
- investitsiya faoliyatini amalga oshirish;
- iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishni amalga oshirish.

Qanday bo'lmasin, korxonaning raqobatbardoshligini baholashni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir — o'rganilayotgan bozorda korxonaning mavqeini aniqlash. Korxonalarning raqobatbardoshligini baholash muammosini o'rganadigan har bir iqtisodchining asosiy vazifasi raqobatbardoshlik mezonlarini, uning manbalari va omillarini aniqlashdan iboratdir. Ko'rib chiqilayotgan mavzu bo'yicha iqtisodiy adabiyotlarni tahlil qilish shakllangan muammoni hal etishda bir nechta yondashuvlarni ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Keyinchalik kompaniyalarning raqobatbardoshligini baholashning asosiy ma'lum usullari tahlil qilinadi, ularning afzalliklari va kamchiliklari umimlashtiriladi.

Tadbirkorlik subyektlari raqobatbardoshligini baholashning keng qamrovli metodologiyasi ichki va tashqi omillarni hisobga olgan holda integratsiyalashgan yondashuvni o'z ichiga oladi. Shuningdek, u kuchli va zaif tomonlarni, imkoniyatlar hamda tahdidlarni aniqlashga, raqobatbardoshlikni yaxshilash va samarali rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish uchun raqobatdosh ustunliklarning barqarorligini baholashga imkon beradi.



Shunday qilib, tadbirkorlik subyektlari uchun raqobatbardoshlikni baholash usulini tanlash ularning bozordagi muvaffaqiyatli faoliyati uchun katta ahamiyatga ega. Tahlilning ishonchligi va funksional to'liqligi qaror qabul qilishda, bozordagi mavqeini aniqlashda, raqobatdosh ustunliklarni baholashda va potensial imkoniyatlarni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Sohaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, tez, samarali va minimal xarajat hamda xatolar bilan baholash imkonini beruvchi texnikani tanlash baholash jarayonining muhim bosqichidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqobat iqtisodiy munosabatlarning ajralmas qismi bo'lgan zamonaviy dunyoda tashkilotlarning raqobatbardoshligini baholash masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Raqobatbardoshlik bozor iqtisodiyoti sharoitida tashkilotlarning muvaffaqiyati va barqaror faoliyat yuritishining asosiy omilidir. Shu munosabat bilan sohadagi tashkilotlarning raqobatbardoshligini baholashda turli yondashuvlarni o'rganish zarurati tug'iladi.

Tadbirkorlik subyektlari raqobatbardoshligini baholash bir qator muhim vazifalarni hal etish imkonini beradi, masalan:

- muayyan bozorda o'z o'rnini belgilash;
- samarali boshqarish uchun strategiya va taktikalarni ishlab chiqish;
- tovarlarni birgalikda ishlab chiqarish uchun sheriklarni tanlash;
- istiqbolli loyihalarga investitsiyalarni jalb qilish;
- yangi bozorlarga chiqish dasturlarini yaratish.

Ushbu masalalarni muvaffaqiyatli hal etish uchun raqobatbardoshlikni baholashning samarali usullaridan foydalanish, shuningdek, raqobatbardoshlikni boshqarish va oshirishga qaratilgan tashkiliy hamda iqtisodiy chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Raqobatbardoshlikni baholash faqat bir tarmoqdagi korxonalar bilan taqqoslaganda mantiqiy ekanligini tushunish muhimdir. Shu bois raqobatbardoshlikni baholashning asosiy bosqichlaridan biri taqqoslash uchun etakchi korxonalarni aniqlash bo'lishi kerak.

Tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini baholashda ilmiy asoslangan uslubiy yondashuvlardan hamda uni boshqarishning samarali tashkiliy va iqtisodiy vositalaridan foydalanish korxonaga bozorda o'z mavqeini mustahkamlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abuzyarova M. I. Methodological approaches to ensure the competitiveness of organizations // Banach Journal of Mathematical Analysis. – 2017. – № 2. – P. 125–132.
2. Андриянова Л. А. Методические подходы к оценке конкурентоспособности сельскохозяйственных предприятий // Научные труды Вольного экономического общества России. – 2012. – С. 74–81.
3. Мокроносов А. Г., Маврина И. Н. Конкуренция и конкурентоспособность. Учебное пособие. – Екатеринбург: Изд-во Урал ун-та, 2014. – 194 с.
4. Погребцова Е. А., Леушкина В. В. Методика оценки конкурентоспособности перерабатывающих предприятий сферы АПК // Электронный научно-методический журнал Омского ГАУ. – 2021. – № 4. – С. 20.
5. Рамазанов В. Г. Аналитические модели оценки конкурентоспособности предприятий // Вопросы структуризации экономики. – 2008. – № 3. – С. 41–43.
6. Дубинина Н. А. Сравнительная характеристика методов анализа и оценки конкурентоспособности продукции // Вестник АГТУ. Серия: Экономика. – 2013. – № 2. – С. 52–61.
7. Xoliqulov A. N., Usmanova D. Q., Raximov X. A. Korxonalar raqobatbardoshligini baholash: O'quv qo'llanma. – Samarqand: Turon nashr, 2021. – 208 bet.
8. Sadikov A. A., Sidiqova Z. K., Rustamov A. Q. Bahoni shakllantirish: O'quv qo'llanma. – Toshkent: Yangiyul poligraf servis, 2007.
9. Jalolov I. I. Statistik tahlil yordamida sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirish // Journal of Marketing, Business and Management. – 2020. – V. 3, № 7 (December). – P. 5–12.
10. Yuldasheva N. A. Sanoat korxonalarining raqobatbardoshlik darajasini baholash asosida innovatsion jarayonlarni boshqarishni takomillashtirish // Management, Marketing and Finance International Scientific Journal. – 2021. – V. 1, № 4. – P. 105–109.
11. Бакатин А. Н. Анализ методов оценки конкурентоспособности предприятия // Прогрессивная экономика. – 2021. – № 1. – С. 18–30.
12. Подолькина Е. В., Советова Н. П. Оценка конкурентоспособности организации. Учебное пособие. – Вологда: ВоГУ, 2015.
13. Сафиуллин Н. З., Сафиуллин Л. Н. Управление конкурентоспособностью предприятий. Монография. – Казань: Казанск. ун-т, 2008. – 189 с.
14. Abuzyarova M. I. Methodological approaches to ensure the competitiveness of organizations // Banach Journal of Mathematical Analysis. – 2017. – № 2. – P. 125–132.
15. Козлова О. А., Нечаева Е. В. Инновации в системе маркетингового управления товарным ассортиментом предприятия // Маркетинг и маркетинговые исследования. – 2011. – № 4. – С. 310–318.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
